



ISSN 2181-1008  
DOI 10.26739/2181-1008



# ВЕСТНИК ВЕТЕРИНАРИИ И ЖИВОТНОВОДСТВА

НАУЧНОЕ ПЕРИОДИЧЕСКОЕ ИЗДАНИЕ



ТОМ 3, НОМЕР 1

# 2023



SAMARQAND VETERINARIYA  
MEDITSINASI INSTITUTI

ISSN 2181-1008

DOI 10.26739/2181-1008

# ВЕТЕРИНАРИЯ ТИББИЁТИ ВА ЧОРВАЧИЛИК БЮЛЛЕТЕНИ

3 ЖИЛД, 1 СОН

ВЕСТНИК ВЕТЕРИНАРИИ И ЖИВОТНОВОДСТВА

ТОМ 3, НОМЕР 1

BULLETIN OF VETERINARY AND LIVESTOCK

VOLUME 3, ISSUE 1



ТОШКЕНТ-2023

# ВЕТЕРИНАРИЯ ТИББИЁТИ ВА ЧОРВАЧИЛИК БЮЛЛЕТЕНИ

ВЕСТНИК ВЕТЕРИНАРИИ И ЖИВОТНОВОДСТВА | BULLETIN OF VETERINARY AND LIVESTOCK

№1 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-1008-2023-1>

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**А.С. Даминов**  
Узбекистан

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Х.Б. Юнусов**  
Узбекистан

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**А.Р. Курбонов**  
Узбекистан

**МАЪСУЛ КОТИБ | ОТВЕТСТВЕННЫЙ СЕКРЕТАРЬ | RESPONSIBLE SECRETARY:**

**Н. Б. Дилмуродов, Самарканд, Узбекистан**

**ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ:**  
**РЕДАКЦИОННЫЙ КОЛЛЕГИЯ:**  
**EDITORIAL BOARD:**

**ТАҲРИРИЯТ КЕНГАШИ:**  
**РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:**  
**EDITORIAL BOARD:**

**Б. Т. НОРКОБИЛОВ**  
Ташкент, Узбекистан

**Ш. А. ДЖАББАРОВ**  
Ташкент, Узбекистан

**Б. А. ЭЛМУРАДОВ,**  
Ташкент, Узбекистан

**Н. А. БОБОКУЛОВ,**  
Ташкент, Узбекистан

**А. А. НУРМАТОВ,**  
Ташкент, Узбекистан

**Б. Б. БАКИРОВ**  
Самарканд, Узбекистан

**Х. Б. НИЁЗОВ,**  
Ташкент, Узбекистан

**Р. Б. ДАВЛАТОВ,**  
Ташкент, Узбекистан

**Э. С. ШАПТАКОВ**  
Ташкент, Узбекистан

**Х. С. САЛИМОВ**  
Самарканд, Узбекистан

**М. А. РУЗИМУРАДОВ**  
Ташкент, Узбекистан

**Д. А. АЗИМОВ**  
Ташкент, Узбекистан

**А. И. ЯТУСЕВИЧ**  
Минск, Республика Беларусь

**Д. А. ДЕВРИШОВ**  
Москва, Российская Федерация

**Ю. А. ЮЛДАШБОЕВ**  
Москва, Российская Федерация

**Д. Н. ФЕДОТОВ**  
Минск, Республика Беларусь

**К. Н. НОРБОЕВ**  
Самарканд, Узбекистан

**С. Ю. ЮСУПОВ**  
Самарканд, Узбекистан

**Х. А. ХАМДАМОВ**  
Ташкент, Узбекистан

**А. А. ЭЛМУРАДОВ**  
Самарканд, Узбекистан

**Б. Д. НАРЗИЕВ**  
Самарканд, Узбекистан

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

## МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


<b>1. Дилмуродов Н.Б., Ниёзов Ҳ.Б., Пардаева Ш.А., Мирзаев С.М., Бозоров Қ. СИГИРЛАРДА ПОДОДЕРМАТИТ ЖАРАЁНЛАРИНИ КЕЛТИРИБ ЧИҚАРУВЧИ ОМИЛЛАР ВА КЕЧИШ ХУСУСИЯТЛАРИ.....</b>	<b>5</b>
<b>2. Tashtemirov Ravshanbek Matlyubovich, Yusupov Azamat Rustam o'g'li OTLARDA SAKRASH BO'G'IMINING ASEPTIK YALIG'LANISHINI DAVOLASH.....</b>	<b>11</b>
<b>3. Ўрмонов Абдурасул Хасанович, Таштемиров Равшанбек Матлюбович СПОРТ ОТЛАРИДА МИОЗИТЛАРНИНГ КЕЧИШ ХУСУСИЯТЛАРИ ВА ДАВОЛАШ.....</b>	<b>16</b>
<b>4. Ниёзов Ҳаким Бақойвич, Абдиев Салоҳиддин Буранович ТУҒИШДАН КЕЙИНГИ ЭНДОМЕТРИТ БИЛАН КАСАЛЛАНГАН СИГИРЛАРНИ ТУРЛИ УСУЛЛАР БИЛАН ДАВОЛАШДА УЛАРНИНГ КЛИНИК – ФИЗИОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ.....</b>	<b>20</b>
<b>5. Djumanov Sobir Murodovich, Rashidov Bekjon SIGIRLARDA VOLA TASHLASHLARNI SABABLARI VA OLDINI OLISH.....</b>	<b>27</b>
<b>6. Tashtemirov Ravshanbek Matlyubovich, Chinmurodov Jahongir To'lqinjon o'gli SPORT OTLARIDA OG'IZ BO'SHLIG'I JAROHATLARI ETIOLOGIASI, KILINIKASI, DIAGNOSTIKASI, PROFILAKTIKASI.....</b>	<b>32</b>
<b>7. Даминов Асадулло, Боймуродов Хусниддин, Суяров Султон, Тошқузиёв Баҳодиржон ЗАРАФШОН ДАРЁСИ ЎРТА ОҚИМИ СУВ ЭКОТИЗИМЛАРИДА LYMNAEIDAE (RAFINESQUE, 1815) ОИЛАСИ МОЛЛЮСКАЛАРИНИ ТАРҚАЛИШИ ВА УЛАРНИ ГЕЛЬМИНТОЗЛАРНИНГ ОРАЛИҚ ХЎЖАЙИНИ СИФАТИДАГИ ЎРНИ.....</b>	<b>37</b>
<b>8. Раҷамуродов Зайнитдин Туробович, Ахроров Маъруф Насимжонович ЯНГИ ТЎҒИЛГАН ҚЎЗИЛАРНИ ТИРИК ВАЗНИ, МУТЛОҚ ВА КУНЛИК ЎСИШИНИНГ ЁШГА ОИД ДИНАМИКАСИ ЎРГАНИШ.....</b>	<b>42</b>
<b>9. Яхяев Бахтиёр Садуллаевич ВЛИЯНИЕ КОМПЛЕКСНОЙ КОРМОВОЙ ДОБАВКИ НА ПЕРЕВАРИМОСТЬ ПИТАТЕЛЬНЫХ ВЕЩЕСТВ ПРИ ОТКОРМЕ КАРАКУЛЬСКИХ БАРАНЧИКОВ.....</b>	<b>48</b>
<b>10. Ходжаева Насиба, Акбарова Гулирухсор, Джурабаева Дилафруз AZOLLA CAROLINIANANINING MORFOBIOLOGIK ХУСУСИЯТЛАРИ.....</b>	<b>54</b>
<b>11. Qurbonova Zarnigor, Fayziyeva Sitara, Norboyev Qurbon BUZOQLAR DISPEPSIYASINING ANTINATAL SABABLARI.....</b>	<b>60</b>
<b>12. Norboyev.Q.N., Safarov. Sh.I. GOLSHTIN ZOTLI SOG'IN SIGIRLAR KETOZINING KELIB CHIQISH SABABLARI.....</b>	<b>65</b>
<b>13. Safarov M.B., Turdiqulov S. BIOLOGIK FAOL MODDALARDAN AYRIM VITAMINLARNING SOG'IN SIGIRLAR FIZIOLOGIK KO'RSATKICHLARGA TA'SIRI (Adabiyotlar tahlili asosida).....</b>	<b>69</b>
<b>14. Djumanov Sobir Murodovich, Imomaliyev Shohruh SIGIRLARDA BACHADON CHIQISHI SABABLARI, DAVOLASH VA OLDINI OLISH.....</b>	<b>73</b>
<b>15. Hamroqulov N.Sh., Ergashev J. TUXUM YO'NALISHIDAGI TOVUQLARDA GIPOVITAMINOZLARNING DIAGNOSTIKASI VA PROFILAKTIKASI.....</b>	<b>78</b>



UDK: U.D.K. 619:636.2:618

**Djumanov Sobir Murodovich**  
Sam DVMCHBU dotsent  
**Imomaliyev Shohruh**  
Sam DVMCHBU magistr

## SIGIRLARDA BACHADON CHIQISHI SABABLARI, DAVOLASH VA OLDINI OLISH

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.7816604>

### ANNOTASIYA

Maqolada tug'ruqdan keyingi davrda bachadonni chiqib qolishi, sabablari, davolash va oldini olish chora tadbirlari hamda kasallik qaysi hayvonlarda ko'proq uchrashi, davolash va oldini olishda qaysi usullardan va dori vositalaridn foydalanish bo'yicha ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** tug'ruqdan keyingi, bachadon, tuliq, karunkula, katelidon, bachadon buyinchasi, bachdon devori, bachadonni shilliq qavati, qon tomirlari, bachadonni joyiga kiritish, yuvish va bandaj quyish.

**Джуманов Собир Мурадович**  
дацент Сам ГУВЖБ  
**Imomaliyev Shahruh**  
магистр Сам ГУВЖБ

## МЕТОДЫ ПРОФИЛАКТИКА, ЛЕЧЕНИЯ И ПРИЧИНЫ ВЫПАДИНЕ МАТКИ У КОРОВЫ

### АННОТАЦИЯ

В статье представлена профилактика, лечения и причины выпадине матки у коровы. В большие встречается какой животных Первечние техники акушерские помощи выпадине матки и современных методов диагностики и лечения выпадине матки у коровы.

**Ключевые слова:** матка, после родов, карункула, кателидон, шеки матки, стенка матки, слизистая оболочка матка, акушерские петли, веревка, замки для фиксации, раствор йода.

**Djumanov Sobir Muradovich**  
dotsent SamDVMChBU  
**Imomaliyev Shohruh**  
Magistr SamDVMChBU

## CAUSES TREATMENT AND PREVENTION OF UTERINE DISCHARGE IN COWS



## ANNOTATION

The article includes information on the of uterus in the postpartum period, causes, treatment and prevention measures, methods and drugs that are most common in which animals the disease occurs, treatment and prevention.

**Key words:** postpartum, uterus, full, caruncle, cervix, uterine wall, uterine lining, blood vessels, insertion of the uterus, wash and bandage.

**Mavzuning dolzarbligi** Respublikamizda chorvachilik tarmog'ini jadal rivojlantirish, zamonaviy va innovatsion uslublarini joriy etish, mahsulotlar ishlab chiqish hajmini oshirish va turlarini kengaytirish, shuningdek, aholini mahalliy sharoitda ishlab chiqarilgan sifatli va arzon chorva mahsulotlari bilan uzuluksiz ta'minlash hamda chorvachilikka ixtisoslashgan korxonalarni davlat tomonidan qo'llab quvvatlash maqsadida Prezidentimiz tomonidan 2020-yil 29 yanvardagi PQ-4576 son qarorida ko'rsatib o'tilgan. Unga ko'ra chorvachilik bilan shug'ullanuvchi fuqarolar bilan hamkorlikni ta'minlash, chorvachilikning barcha tarmoqlari va nasilchilik sohasini rivojlantirishni olib borish va muammolarni yechimini topish, mahsuldorlikni oshirish, ozuqabob ekinlarni yetishtirish, mahsulot ishlab chiqarish va nasilchilik seleksiya amaliyotida yangi ilmiy tadqiqot natijalarni va innovatsion ishlanmalarni yo'lga qo'yish borasida ko'rsatmalar berilgan. Bundan tashqari davlat jamg'armasi hisobidan chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik va quyonchilik komplekslarini qurish, yirik va mayda shoxli nasldor chorva mollarini xarid qilish, chorva mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash bo'yicha loyihalarni ko'rsatib o'tgan. 2020-yilda sotib olinadigan nasldor qora mollar uchun, respublikamiz hududidagi nasilchilik xo'jaliklaridan sotib olish uchun 10 mlrd, Xorijiy davlatlardan import qilish uchun 40 mlrd so'm, qo'y, echkilar uchun 6 mlrd so'm subsidiya puli belgilab qo'yilgan. 2020- yil 1- iyulga qadar 2021-2022-yillarda respublikada faoliyat yuritayotgan nasilchilik xo'jaliklari tomonidan sotiladigan va imort qilinadigan nasldor qoramollar, qo'ylar va echkilar sonidan kelib chiqib, sonini oshirish uchun mablag'lar davlat hisobidan ajratilishi bo'yicha parametrlar ishlab chiqilmoqda. O'zbekiston Respublikasining 1995-yilda qabul qilingan "Naslelilik to'g'risida"gi va 2015-yilda qabul qilingan "Veterinariya to'g'risida"gi Davlat Qonunlari, shuningdek, Chorvachilik tamog'ini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish butun agrar tarmog'ini rivojlantirish borasida harakatlar strategiyasi shular jumlasidandir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 29 – dekabrda PQ-2460-son "2016-2020 yillar davrida qishloq xo'jaligini isloh qilishni chuqurlashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida 2016-2020 yillarda qoramollar bosh sonini qo'shimcha 3165 ming boshga, qo'y va echkilar bosh sonini 4281 ming boshga va parrandalar sonini 31200 ming boshga oshirish vazifalari belgilandi.

Oxirgi yillarda qoramolchilikni fan yutuqlari va ilg'or tajribalar asosida rivojlantirish maqsadida nasilchilik ishga, ozuqa bazasini mustahkamlashga va mahsulot ishlab chiqarish hamda uni qayta ishlash texnologiyasini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bunda qoramollar zotini yaxshilash, genofondini boyitishva saqlash muhim hisoblanadi. Shuning uchun ham oxirgi yillarda dunyo genofondiga xos xo'jalik foydali belgilari bilan boshqa zotlardan keskin farq qiladigan qora ola , golishtin , simmental, shvitis hamda qizil cho'l kabi zotlar mamalakatimizning turli hududlariga xorijdan keltirilmoqda. Joylarda qoramolchilikka ixtisoslashgan zamonaviy fermer xo'jaliklari bunyod etilmoqda. Sigirlar orasida ko'plab kasalliklar qayd etilmoqda. Shu jumladan sigirlarda bachadon chiqishi kabi kasalliklar kuzatilmoqda. Bu kabi kasalliklar oqibatida hayvonlar orasida mahsuldorlikning pasayishi, qisir qolishlar, har xil turdagi bachadon kasalliklari ko'payib ketmoqda. buning natijasida hayvonlarda ginekologik kasalliklardan bachadonni chiqishi, yo'ldoshni ushlanib qolishi, bachadon subinvalyutsiyasi, tug'ruqdan keying parez, tug'ruqdan keying infeksiyalar, bachadon yallig'lanishi ko'p qayd etilishi ma'lum bo'ldi. Fermer xo'jaliklariga chetdan keltirilayotgan mahsuldor sigirlar va aholi orasidagi sigirlarda osteodistrofiya, gipokuproz, gipokobaltoz, alimentar anemiya, buqoq kabi vitaminlar va mineral moddalar almashinuvi buzulishi bilan kechadigan kasalliklar oqibatida ularda bachadonni chiqishi kasalligi ko'p qayd etilib, oziqalar sarfining ortishi, mahsuldorlik va chorvachilik mahsulotlari oziqaviy qimmatining pasayishi, ona hayvonlarning bepushtligi hisobiga xo'jaliklar katta iqtisodiy zarar ko'rmoqda. Shuning uchun ona

hayvonlarning moddalar almashinuvi buzilishlari oqibatida kuzatiladigan, bachadonni chiqishi, yo'ldoshni ushlanib qolishi, tug'ruq falaji kabi ginekologik kasalliklarni o'z vaqtida aniqlash va oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb muammolardan biri hisoblanib, hayvonlarni yetarlicha oziqlantirmaslik ularda moddalar almashinuvining buzilishi, sigirlar jinsiy a'zolarida funksional va morfologik o'zgarishlar kuzatilishi, qisir qolishiga (alimentar qisirlik) olib keladi. To'la qimmatli oziqlantirmaslik, ayniqsa, bo'g'ozlikning oxirgi ikki oyida salbiy ta'sir etadi. Shuningdek, qish va bahorda to'liq oziqlantirilmagan sigirlarning 50 foizida yozgi paytda ham moddalar almashinuvi darajasi tiklanmaydi. Shuning uchun har bir xo'jalikda moddalar almashinuvi darajasini nazorat qilish va oziqlantirishni tartibga solish maqsadida vaqti-vaqti bilan ayniqsa, qish va bahor oylarida sigir va g'unajinlar qonidagi kalsiy, fosfor, karotin, oqsil va zahira ishqoriy darajasini tekshirib turish lozim B.M.Eshbo'riyev ma'lumotlariga ko'ra qinni chiqib qolishi (Inversio vaginae s prolapsus vaginae) tos bo'shlig'ining biriktiruvchi to'qima asosi hamda devorlari tonusining yo'qolishi tufayli, qinning jinsiy yoriqlar orqali chiqishi tushuniladi. Qinning qisman - (prolapsus vaginae partialis- qinning dorzal tomoni devorlari jinsiy yoriqdan ko'rinib turadi) va to'liq (prolapsus vaginae totalis- qin va bachadon bo'yinchasining jinsiy yoriqdan tashqariga chiqishi) chiqishi farqlanadi. Odatda qinning chiqishiga bo'g'ozlikning ikkinchi yarmida hayvonlar to'yimligi past va sifatsiz oziqlar bilan boqilishi, matsionning yo'qligi, kuchli ishlatilishi, yomon sharoitlarda asralishi sabab bo'ladi. Ba'zan hayvonlarda kuchli kuchanishlarning paydo bo'lishi yoki ich ketishi ham qinning to'la chiqishiga olib keladi. Hayvon yotganda tanasining orqa qismi past bo'lishi sababli qorin bo'shlig'ida bosimning ortishi ham qinning chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Qinning qisman chiqishi yengil kechadi va o'z vaqtida davolanganda ijobiy natija beradi. Tug'ishigacha uzoq vaqt harakat qilmagan hayvonda kasallikning oqibati yomon bo'lishi mumkin. Ayrim holda kasallik asorat berishi, qin shilliq pardasining chuqur jarohatlanishi, uremiya, qorin pardalarining yallig'lanishi va hayvon nobud bo'lishi mumkin. "Veterinariya akusherligi" B.M.Eshburiyev Toshkent – 2018. Ветеринарное акушерство, гинекология и биотехника размножения А.Р.Студенсов Ma'lumotlariga qaraganda bachadonning chiqib qolishi (Prolapsus uteri, inversio uteri) tug'uruqdan keyin kuzatiladi va ikki xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. Bachadon shoxining qin bo'shlig'iga ag'darilib chiqishi yoki kirib qolishi chala chiqish bo'lsa bachadonning jinsiy yo'llardan butunlay tashqariga chiqib qolishi - to'la ag'darilib chiqish deyiladi. Kasallik ko'pincha sigir va echkilarda, biya va cho'chqalarda esa kamroq uchraydi. Bachadonning ag'darilib chiqishi tug'ishdan keyingi 6 soat ichida, homila yo'ldoshi ajralmagan va bachadon hali qisqarib ulgurmasdan bachadonning bo'yni kanali bachadon tanasi yoki shoxi sig'adigan darajada ochiq turgan paytda ro'y beradi. Bachadonni chiqishida homila yo'ldoshining tug'ish yo'llari reseptorlariga ta'siri va pastga osilib turishi, tuqqan hayvonni orqa tomoni juda past joyda yotishi katta ahamiyatga ega bo'ladi. Shuning uchun odatda yo'ldosh ajralgandan keyin bachadonni chiqib qolishi kuzatilmaydi. Sigirlarda katta qorinda qattiq oziqa massasining ko'p bo'lishi va bachadon devorini ta'sirlantirishi tuqqandan keyin ham to'lg'oq va kuchanishlarga sabab bo'lishi mumkin.

**Bachadonni chiqib qolishi.** (Prolapsus uteri, inversio uteri). Bunday hol tug'uruqdan keyin uchraydi va ikki xil ko'rinishda namoyon bo'ladi: bachadon shoxining qin bo'shlig'iga chiqishi (chala) va bachadonning jinsiy yo'llardan butunlay tashqariga chiqib qolishi (to'la chiqishi). Kasallik ko'pincha sigir va echkilarda, ba'zan biya va cho'chqalarda uchraydi. Bachadonning chiqishi tug'ishdan keyingi 6 soat ichida, bachadon hali qisqarib ulgurmasdan ya'ni bachadon bo'yinchasi kanali bachadon tanasi yoki shoxi sig'adigan darajada ochiq turgan paytda ro'y beradi. Bachadon chala chiqqanda hayvon bezovtalanib, tez-tez kuchanadi, qorin pressi muskullari qisqaradi, hayvon orqasini egib, dumini ko'tarib turadi, kuchanish tutgan paytda oz-ozdan tezak va siydik ajraladi. Ayrim hayvonlarda holsizlanish kuzatiladi, ishtaha va kavsh qaytarish yo'qoladi.

Biyalarda bunday paytda sanchiqlar paydo bo'ladi. Bachadonning chala chiqishi ichki tekshirish usuli bilan aniqlanadi. Bunda qo'l bilan paypaslab bachadonning ag'darilib chiqqan qismi topiladi. Bachadonning to'la chiqishi ko'p uchraydi. Bunda bachadon jinsiy yoriqdan sakrash bo'g'inigacha osilib tushadi. Kavshovchi hayvonlarda tushgan bachadonni undagi karunkulalariga qarab osongina aniqlash mumkin. Biyalarda bachadonni chiqishida kapilyar qon oqishi kuzatiladi.

Choʻchqalarning tushgan bachadoni uzun ichak koʻrinishida boʻladi. Shilliq pardasida bir talay koʻndalang burmalar borligini koʻrish mumkin.

Agʻdarilib tushgan bachadon sernam, nisbatan yumshoq, och qizil rangda boʻladi. Qonning toʻxtab qolishi va shishishi tufayli u qattiq va toʻq qizil rangda boʻladi. Bir necha soatdan keyin agʻdarilib chiqqan bachadon yuzasi qurib, yoriqlar bilan qoplanadi va qoramtir kulrang yoki jigarrang tusga kiradi. Keyinchalik, nekroz va sepsis rivojlanishi mumkin.


### Sigir bachadonini qayta joyiga quyish tartibi.(1-rasm)



**Davolash.** Hayvon koʻpincha yotgan boʻladi, shuning uchun agʻdarilib chiqqan bachadon ostiga kleyonka yoki choyshab solinib, dumgʻaza qismida epidural anesteziya oʻtkaziladi, bachadonning bir qancha joyiga 0,5-1 sm chuqurlikda (sigirlarga 60 TB, mayda hayvonlarga 5-20 TB miqdorida) oksitosin yuboriladi, achchiqtosh (3%-li), kaliy permanganat (1:5000), furasillin (1:5000) eritmaları bilan yuviladi, bachadondagi jarohatlarga chok qoʻyiladi, yorilgan yoki tirlalgan joylarga, hamda butun bachadon shilliq pardasiga Vishnevskiy malhami surtiladi yoki boshqa mikroorganizmlarga qarshi malham surtiladi. Oksitosin inekisiya

qilingandan keyin 5 daqiqa oʻtgach, bachadon 30% qisqaradi, qattiqlashadi va engil toʻgʻrilanadigan boʻladi. Agʻdarilib chiqqan bachadon kuchli shishgan boʻlsa 3%-li achchiqtosh yoki 2%-li vagotil eritmasi shimdirilgan sterillangan bintlar bilan mahkam bogʻlanadi. Bintlash agʻdarilgan bachadon shoxlaridan boshlanib, jinsiy lablar tomon boriladi. Bachadonni toʻgʻrilab, oʻrniga qoʻyishdan oldin bintning bir qismi ochiladi, bachadonni ikki qoʻl bilan ushlab, jinsiy lablarga yaqin qismi koʻtariladi va asta-sekin tos boʻshligʻiga yuboriladi. Keyin boshqa qismi ushlanib, binti ochilib sekinlik bilan u ham tos boʻshligʻi tomon yuboriladi. Bunda yordamchi kishi bachadonni toza choyshab bilan jinsiy lablar balandligida ushlab turishi lozim.

Bachadon oʻrniga solingandan keyin uning boʻshligʻiga baliq moyi bilan trisillin, 1-2 ta ekzuter va boshqa antiseptik dorilar yuboriladi. Bachadonning qayta agʻdarilib chiqish xavfi boʻlsa, dumgʻaza qismida epidural anesteziya oʻtkaziladi. Qin va anal teshigida joy qoldirilgan holda teshilgan charmdan 4 ta ip oʻtkazilib, sigirning koʻkrak qafasiga bogʻlangan tasmaga bogʻlab qoʻyiladi (40-rasm). Qinga valiksimon yoki xaltachali choklar oʻrnatish ham mumkin. Bunda ogʻriq tufayli hayvonning kuchanishi uzoq davom etishi mumkin. Shishgan va jarohatlangan qismi koʻp boʻlsa bachadon amputasiya qilinadi.



**Bachadonni chiqqan sigirga (bandaj)-bogʻlam qoʻyiladi. (2-rasm).**



Operatsiya hayvonning yotgan yoki turgan holatida o'tkaziladi. Amputasiyadan oldin 0,5-1%-li novokain eritmasi bilan infiltratsion anesteziya o'tkaziladi. Bunda eritma ligatura qo'yiladigan (bog'lanadigan) bachadon to'qimalaridan biroz yuqori, bachadon bo'yinchasiga yaqinroq joyga yuboriladi. Infiltratsion anesteziya bilan bir vaqtda dum qismida epidural anesteziya ham o'tkazilishi mumkin. Bachadon 0,1%-li kaliy permanganat, 2%-li achchiqtosh eritmalari bilan yaxshilab yuviladi. Shundan keyin bachadon bo'ynidan 10-15 sm uzoqlikda, hayvonlarni bichishda qo'llanadigan ip bilan sirtmoq solinadi va bachadon amputasiya qilinadi.

#### **Xulosa:**

1. Yuqoridagi ma'lumotlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda sigirlar bachadonining chiqishi sabablarini oldini olish uchun bo'g'ozlikning 7-oyligidan boshlab doyimiy matsionni ta'minlash, kuniga (2-3) km masofaga yayratish tavsiya etiladi.

2. Bachadoni chiqqan sig'irlarni uz vaqtida aniqlab, achchiqtosh (3%-li), kaliy permanganat (1:5000), furasillin (1:5000) eritmalari bilan yuviladi, bachadondagi jarohatlarga chok qo'yiladi, yorilgan yoki tirnalgan joylarga, hamda butun bachadon shilliq pardasiga vishnevskiy malhami surtiladi yoki boshqa mikroorganizmlarga qarshi malham surtiladi bachadonini uz joyiga kiritib bandaj quyish tavsiya qilinadi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Кондрахин И.П., Левченко В.И. Диагностика и терапия внутренних болезней животных. М.: Изд.ООО «Аквариум-Принт», 2005.С.-652-664
2. Коба И.С. Усовершенствование комплексной фармакотерапии при остром послеродовом мастите бактериально-микозной этиологии. Авторефф. дисс.докт.вет. наук. 2009. С-28-33.
3. Студенцов А.Н., Шипилов В.С., Субботин Л.Г., Преображенский О.Н. Ветеринарное акушерство, гинекология и биотехника размножения, 7-ое изд. М.: «ВО Агропромиздат», 1999.
4. Субботин В.М., Субботина.С.Г., Александров И.Д. Современные лекарственное средства в ветеринарии. Феникс Ростов-на-дону 2000.
5. Баймишев, Х. Б. Практикум по акушерству и гинекологии: учебное пособие. – 2-е изд. перераб. и доп. – Самара: РИС СГСХА, 2012. – 300 с.
6. Eshburiev V.M. Veterinariya akusherligi. Darslik, Toshkent, 2018.
7. Eshburiev V.M., Eshburiev S.B., Djumanov S.M. Veterinariya akusherligi fanidan amaliy-laboratoriya mashg'ulotlar. O'quv qo'llanma, Samarqand, 2020.



**SAMARQAND VETERINARIYA  
MEDITSINASI INSTITUTI**

ISSN 2181-1008

DOI 10.26739/2181-1008

# ВЕТЕРИНАРИЯ ТИББИЁТИ ВА ЧОРВАЧИЛИК БЮЛЛЕТЕНИ

3 ЖИЛД, 1 СОН

ВЕСТНИК ВЕТЕРИНАРИИ И ЖИВОТНОВОДСТВА  
ТОМ 3, НОМЕР 1

BULLETIN OF VETERINARY AND LIVESTOCK  
VOLUME 3, ISSUE 1

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000